

Toshkentda matematika va informatika bo'yicha festival bo'lib o'tadi

 [Sahifani PDF tarzda yuklab olish \(52 Kb\)](#)  [Versiyasi](#)  [Sahifani doc tarzda yuklab olish \(52 KB\)](#)

Joriy yil 1-3-aprel kunlari «Lomonosov - 2018» forumi doirasida M.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universitetining Toshkent shahridagi filialida matematika va informatika bo'yicha festival bo'lib o'tadi.

Mazkur an'anaviy festival iste'dodli yoshlarni aniqlash va saralashga yo'naltirilgan bo'lib, unda qatnashish bepuldir. Buning uchun joriy yilning 30-martigacha <http://msu.uz/forum2018> saytida ariza to'ldirish kifoya.

Festivalda mamlakatimizdagi umumta'lim maktablarining 9 va 10 sinflari, kasb-hunar kollejlari va akademik litseylar o'quvchilari ishtirok etishi mumkin. Bunda ishtirokchilarga bitta yoki bir vaqtning o'zida ikkita fan bo'yicha qatnashish imkoni beriladi. Ishtirokchilar uch kun davomida matematika va informatikaga oid masalalarni yechadi.

Festival g'oliblari medallar va faxriy diplomlar bilan taqdirlanadi.

Roman Bondarchuk, O'zA

10.03.2018 12:32 da elon qilingan, marta korib chiqildi